



Professional competence of a computer science teacher method of diagnosis

Utkir ESHALIYEV¹

Termiz Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2022

Received in revised form
20 June 2022

Accepted 25 July 2022

Available online

15 August 2022

Keywords:

pedagogical skill,
skill,
reproductive,
research,
creative innovation,
skill,
competence.

ABSTRACT

At a time when our society is developing, educating young people based on the requirements of the times is one of the most important tasks. In particular, the method of diagnosing the professional competence of an informatics teacher is the main task of strengthening work with talented students, revealing their talents, training future informatics teachers.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss7/S-pp154-159>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Informatika o'qituvchisi kasbiy bilimni tash'his etish metodikasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

pedagogik mahorat,
mahorat,
reproduktiv,
izlanuvchanlik,
ijodiy novatorlik,
ko'nikma,
kompetentlilik.

Jamiyatimiz rivojlanib borayotgan bir paytda yoshlarni zamon talablari asosida tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, informatika o'qituvchisi kasbiy kompetentligini tash'his etish metodikasi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni kuchaytirish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish, bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda asosiy vazifa hisoblanadi.

¹ Teacher of Termiz Pedagogical Institute. E-mail: utkireshaliev70@gmail.com.

Методика анализа профессиональной компетенции учителя информатики

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

педагогическое мастерство, репродуктивное, исследовательское, творческое новаторство, компетентность.

В условиях развития нашего общества, воспитание молодежи исходя из требований времени является одной из важнейших задач. В частности, методика анализа профессиональной компетентности учителя информатики является основной задачей при усилении работы с одаренными учащимися, выявления их талантов, подготовки будущих учителей информатики.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son Qarorlarida professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimni va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimini yaratish va amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini ta'minlashdagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida informatika o'qituvchisini tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, informatika o'qituvchisini kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalarini o'qitish tizimida "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" o'quv modulining o'qitilayotganligi pedagog kadrlarning zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari, ta'lim amaliyotida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifatleri va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko'nikma-malakalarini hosil qilish uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.

"Innovatsion ta'lim texnologiyalari" kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

- innovatsion ta'lim texnologiyalarining funksiyalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari va qo'llanilish sohalar;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-psixologik va metodik shart-sharoitlari;

- innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash qoidalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'qitish), case-study (keys-stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologiyalarining mohiyati;
- pedagogik kompetentlik asoslari va sifatлари;
- pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari, shakl va metodlari;
- pedagogik kompetentlik potentsiali va undan oqilona foydalanish shartlari;
- pedagoglarning kasbiy faoliyat (o'quv mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish)ga kreativ yondashishlari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi;
- aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini shakllantirish;
- interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini loyihalash va rejalashtirish;
- shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- talabalarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- interfaol ta'lim texnologiyalari (amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'qitish), case-study (keys-stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologiyalari)ni oliy ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish ko'nikmalarini egallashi;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini "jonli", ijodiy tashkil etish;
- innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- innovatsion tafakkur yuritish orqali ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlab olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonlari tezkor rivojlanish dinamikasi ta'lim tizimi oldiga ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan va texnik texnologiyalarga tez moslashishga layoqatli, malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'ydi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ta'lim sifatini tashxis qilishda rivojlangan davlatlarning tajribalarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga tatbiq etish, shu jumladan, informatika fanlarini tashxis qilish hisoblanadi. Mehnat bozorining ehtiyojlari, kasbning kishi oldiga qo'yadigan umumiy va individual talablari kabi omillarni e'tiborga olgan holda amalga oshirilgan kasbiy tanlov yangi kasbni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, mehnat faoliyatiga uyg'un holda kirishish, raqobatbardosh professional shaxsning yuzaga kelishida muhim shartga aylanadi. Bunda kasbiy yo'naltirilganlik uchun hozirgi zamon sharoitlariga mos keluvchi tashxis etish va kasbiy yo'naltirish tizimlari katta ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Bugungi zamonaviy mehnat bozorida o'zining faoliyat yuritib kelayotgan yoki potensial xodimlarining kasbiy sifatlarini baholashda eng yorqin tamoyillardan biri ish beruvchilar, kadrlar bilan ishlash xizmatlari va yaqin kelajakda esa ta'lim muassasalarining ham kasbiy standartlarga o'tishi sanaladi. Hozirgi vaqtda hatto faoliyat yo'nalishi bo'yicha bir xil tipdagi tashkilotlardagi mutaxassislarning bir xildagi lavozimlarda bo'lishlariga qaramasdan turli xil vazifalarni bajarishlariga duch kelishimiz mumkin.

"Oliy ta'limda informatika fanlarini o'qitish metodikasi" modulining maqsadi:

- pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini informatika fanlarini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;


– informatika fanlari o'qituvchilarini informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;

– informatika fanlari o'qituvchilarining ta'lim-tarbiya tizimini axborotlashtirishning zamonaviy yo'llari va ulkan istiqbollari haqida tasavvurlarini rivojlantirish hamda chuqurlashtirish;

– oliy ta'limda informatika fanlarini o'qitish metodikasiga doir bilimlarini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash va yaratish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Ko'pchilik ish beruvchilar uchun yuzaga kelgan bu vaziyatdan chiqib ketishning bir yo'li kasbiy standartlarning funksiyalarini kasbiy kompetensiyalar "tili"ga o'tkazish bo'yicha zamonaviy psixotexnologiyalardan foydalanish bo'lishi mumkin. Bu usul davlat hokimiyatining kasbiy standartlarga o'tish majburiyligi talabi va ish beruvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasalarining imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikning hal qilinishiga yordam bergan bo'lar edi. Kompetentlilik yondashuvi, bir tomondan, sof akademik modellardan uzoqlashishga va kadrlar bilan ishlashning samarali tizimini shakllantirishga ko'mak beradi. Ikkinchi tomondan esa kompetentlilik yondashuvi ilmiy yondashuvni inkor etmaydi va psixologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot va menejmentning zamonaviy konsepsiyalari bilan yaxshigina darajada integratsiyalashadi.

Informatika o'qituvchisining kasbiy rivojlanishi jarayonida kompetensiyalarni o'rganish texnologiyasidan foydalanish.



Bo'lajak informatika o'qituvchisi o'rganish uchun kompetensiyalarning eng umumiy turlari – me'yoriy-huquqiy, axloqiy, kommunikativ, axborotli, ijtimoiy-psixologik, o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini takomillashtirish tizimlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Kompetensiyalarning mazkur darajasi barcha mutaxassislar uchun tayanch sanaladi, chunki u, eng avvalo, tahsil oluvchining shaxsiy rivojlanishini tavsiflaydi va uningsiz mutaxassis tayyorlash jarayonini loyihalashtirish mumkin emas.

Ish beruvchilar bo'lajak informatika o'qituvchisi kontent-tahlili nafaqat nomzodlarning kasbiy istiqbollarini baholashda ish beruvchilar foydalanadigan suhbatni baholashga, balki mehnat bozorida eng asosiy, talab eng kuchli bo'lgan

kompetensiyalarni shakllantirishga ham imkon berdi. Empirik tahlil davomida olingan kompetensiyalar to'plami shu paytgacha ma'lum bo'lgan nazariy modellar bilan taqqoslab chiqildi. Empirik tadqiqot va nazariy tahlil asosida ajratib olingan bu kompetensiyalarga tayanish mehnat bozorida yuzaga kelgan vaziyatga muvofiq bo'lgan metodikaning rag'batlantiruvchi materiallarini ishlab chiqishga kirishish imkonini berdi.

Ko'rsatib o'tilgan kompetensiyalar to'plami yaratilayotgan rag'batlantiruvchi materiallar asosiga yotqizildi. Har bir kompetensiya uchun sinalayotgan u yoki bu kompetensiyaning ifodalanganligiga bog'liq bo'lgan bir nechta ta'riflar ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang). Bunda alohida e'tibor aynan kompetentlik yondashuviga qaratildi: ta'riflar kishining izolyatsiyalangan sifatleri yoki qobiliyatlariga emas, balki uning u yoki bu mehnat vazifalarini bajara olishga qobilligiga qarab shakllantirildi.

So'rovnomaning tayanch kompetensiyalari ro'yxati:

- fikrlash tizimligi, mantiqiylik;
- fikrlash dinamikligi, aqlning moslashuvchanligi, tanqidiyligi;
- yaxshi xotira;
- diqqatni jamlay olish;
- yaxshi, savodli nutq;
- o'qitiluvchanlik, o'qishga yaxshi munosabat;
- natijaga intiluvchanlik;
- rejalashtirish va loyihalashtirish qobiliyati;
- boshqaruvchilik ko'nikmalari;
- mas'uliyatlilik;
- kommunikabellilik;
- ishbilarmonlik muloqoti ko'nikmalari, muzokara olib bora olish mahorati;
- jamoada ishlay olish mahorati;
- kompaniyaga xayrixohlik (loyallik);
- stressga chidamlilik;
- maqsadga erishish motivatsiyasi;
- mustaqillik;
- ijodkorlik, kreativlik;
- ishchanlik, psixomotorika;
- o'ziga ishonch.

Tadqiqot jarayonida sinalayotganlar ijtimoiy jihatdan o'zlari xohlaydigan javoblarni berishga moyil bo'lganliklarini hisobga olish bilan juft taqqoslashlar metodi (Terstounning taqqoslama mulohazalarini shkalalash modeli) qo'llanildi. Shunday qilib, ikkita ta'rifdan bittasini (turli xil kompetensiyalarga mansub bo'lganlardan bittasini) majburiy tanlab olish tadbiri amalga oshiriladi. Rag'batlantiruvchi material sifatida turli xil kompetensiyalar tavsiflari ro'yxatidagi ta'riflardan foydalaniladi. Ta'riflar sinalayotgan kishiga juft-juft tarzda taqdim etiladi (jami bo'lib 50 juft), sinaluvchining vazifasi ikkita ta'rifdan bittasini tanlab olishdan iborat bo'lib, bunda u tanlab olgan ta'rif uning qobiliyatlari va mahoratini eng aniq tarzda tavsiflaydigan bo'lishi lozim.

Mazkur metodika ish beruvchilarning potensial nomzodlarga talablari asosida yaratiladi, shuning uchun mazkur texnologiyani ishchi-xodimlarning ular faoliyatidagi kasbiy standartlardan kelib chiqqan holda baholash uchun qo'llash mumkin. Shunga ko'ra, masalan, dasturchining kasbiy standartida uning mehnat funksiyasi quyidagicha tavsiflangan: "Texnik topshiriqqa (tayyor spesifikatsiyalar bilan) mos holda dasturiy kodlarni yaratish". Yuqorida keltirilgan metodikadan kelib chiqqan holda

mutaxassislikka ga ega bo'lgan dasturchi uchun mazkur funksiyani muvaffaqiyatli bajarish borasida quyidagi kompetensiyalar zarur bo'ladi:

- qandaydir masalani hal qilishda axborotlarning katta hajmi bilan ishlay oladi;
- bir nechta bir xildagi masalalarni tezkor sur'atda yecha oladi;
- texnik axborotlar, formula va raqamlarni eslab qola oladi;
- bir vaqtning o'zida bir nechta operatsiyalarni nazorat ostida ushlab turishga qobil;
- o'z faoliyati maqsadlariga erishishning optimal yo'llarini topa oladi;
- istalgan muammoni hal qilishning bir nechta variantlarini taklif qilishga qodir.

Ilg'or psixotexnologiyalar asosida kompetensiyalarni har taraflama o'rganish ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarda potensial ish beruvchilar uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishga imkon berib, bu mutaxassislarning ish joylarida ularning salohiyatidan maksimal darajada foydalanishga ko'mak bergan bo'lar edi.

Shunday qilib, "Kasbiy kompetensiyalar so'rovnomasi" kabi universal metodikalar ishchi-xodimlarni ularning optatsiya bosqichidan boshlab to ular nafaqaga chiqqunlarigacha bo'lgan davrda doimiy kuzatilib borishlari jarayonida kompetensiyalari shakllanishining dinamikasini o'rganishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davidov D.G., Batishev V.N., Chmixova Ye.V. "Metodika diagnostiki professionalnix kompetensiy" [elektronniy resurs] // https://muh.ru/wp-content/uploads/docs/davidov_statya_2015.pdf.
2. Korchemniy P.A. Kompetensii: psixologicheskie problemi vospriyatiya, prinyatiya i realizatsii // Vestnik MGOU. Seriya «Psixologicheskie nauki». 2013.
3. Minkomsvyazi otkazalos ot idei profstandartov dlya SMI [Elektronniy resurs] data obrasheniya: 22.03.2015.
4. Professionalniy standart: Programmist. Prikaz Ministerstva truda i sotsialnoy zashitiy RF ot 18 noyabrya 2013 g. №679n «Ob utverjdenii professionalnogo standarta «Programmist» [Elektronniy resurs] data obrasheniya: 22.03.2015.
5. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent, «Fan va texnologiyalar», 2019-yil.
6. www.lex.uz.
7. www.natlib.uz.